

XIVA XONLIGI DAVRIDA MADANIYAT

Eshchonova Maftuna Arslonbek qizi

Urganch Davlat Universiteti

Tarix (mintaqalar va yo'nalishlar bo'yicha)

1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva xonligi davridagi madaniyat har tomonlama yoritilib berilgan. Xiva xonligi madaniyati tarixni o'rganish va umumlashtirishga yordam beradi. Ko'pgina ilmiy manbalar, Xiva xonligi davridagi madaniy hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Kalit so'zlar: Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon, Muhammad Raximxon II, Ichan qal'a, Dishan qal'a, Nurullaboy saroyi, Islomxo'ja minorasi.

Abstract: In this article, the culture during the Khiva Khanate is comprehensively covered. The culture of the Khiva Khanate helps to study and generalize history. Many scientific sources provide interesting information about the cultural life of the Khiva Khanate.

Keywords: Khan of Khiva Abulghazi Bahadirkhan Muhammad Rahimkhan II, Ichan Castle, Dishan Castle, Nurullabai Palace, Islamkhoja Tower.

Xorazm butun O'rta Osiyo tarixida madaniyat va san'at markazlaridan biri sifatida muhim rol o'ynagan. Xiva xonlari ham o'zlarida qarama-qarshiliklar birligini gavalantirgan, ya'ni bir tomondan, ular xalqqa zulm o'tkazgan, davlatni zavolga yuzlantirgan mustabidlar bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular Xorazm qadimiy milliy madaniyat sohiblari bo'lishgan hamda davlat va xalqning ma'naviy yuksalishi uchun ko'p kuch-g'ayrat sarflashgan.

Xivaliklar va ularning qadimgi xorazmlik ajdodlari madaniyatini tadqiq qilishda an'anaviy dehqonchilik, Amudaryo kemalari va savdo-sotiq munosabatlariga

alohida e'tibor qaratish lozim. Xorazm bu davrda dunyoning eng yirik saltanatlaridan biri edi. Xorazm tarixnavislik maktabiga asos solgan shaxs Abulg'oziy Bahodirxondir.

Abulg'oziy Bahodirxon(1605-1644) Xiva hukmdori Arab Muhammadxonning taxtga hukmdor yettita o'gillaridan biri. U ham hukmdor, ham tarixchi olim sifatida tarixda nom qoldirdi. Abulg'oziy iste'dodli tarixchi sifatida ikkita muhim asar yozadi. Bahodirxon 1661-yilda "Shajarayi tarokima" asarini yozadi. Asarda o'guz-turkmanlarning kelib chiqishi, rasm-rusmlari, og'zaki ijod namunalari, afsona va rivoyatlarida o'ta shirali tarzda Xorazm lahjasida bayon etilgan edi.

Shermuhammad Munis o'zining "Firdavs ul-iqbol" nomli tarixiga oid asarida keltirilgan "Abulg'oziy bag'oyat tarixdon va ash'or faxm kishi erdi" deya

ta'riflaganligi ham xonning yuksak iste'dodidan dalolat beradi. "Shajarayi turk" asari 1664-yilda o'zbek urug'lari haqida yozilgan asar hisoblanib, bu asarda ko'plab etnografik ma'lumotlar hamda Xorazmning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga doir ma'lumotlar bor. Bu asar omma tushunadigan tilda va ommabop usulda yozilganligi bilan ajralib turadi. Asar Abulg'oziy Bahodirxon vafotidan keyin tugallanmay qoladi. Bahodirxon o'g'li Anushaxon taklifiga muvofiq, urganchlik tarixchi Mahmud ibn Mulla Muhammad Zamon Urganjiy tomonidan ba'zi ma'lumotlar bilan to'ldirilgan. Xorazm san'atining sayqal topishi, abadiylikka yuz tutishi, bugungi kunda avlodlarga boy va tunganmas xazina sifatida yetib kelishi bevosita Muhammad Rahimxon Feruz nomi bilan chambarchas bog'liq. Feruzning 37 yillik hukmdorlik davri Rossiyaga qaramlikda o'tkazdi. Xon saroydan va Xiva shahridan talab olib ketilgan kitoblarning o'rnini to'ldirish maqsadida xon 1874-yilda Xiva shahrida Markaziy Osiyodagi birinchilardan bo'lib tosh bosmani ishga tushirdi. Xudoybergan Devonov suratkashlikni mashq qilib, Xivada birinchi bo'lib foto-kino san'atiga asos soldi. Feruz xonlik qilgan davrda Xiva davlatining biroz markazlashuvi natijasida ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi. Feruz buyrug'iga binoan 1000 ta qo'lyozmani qayta yozish boshlandi. Sharqning 100 dan ortiq mashhur tarixiy va badiiy asarlari eski o'zbek tiliga tarjima qilindi. 1908-yilda Xiva xonligiga tashrif buyurgan A.N.Samoylovich (1880-1938) xon haqida ijobiy fikr bildirgan: Endilikda Xiva ilm-fani va san'atining ma'rifatparvar homiysi Seyid Muhammad Rahim II xonligi o'z yurtini ilmiy o'rganishga tayyor ekanligini ko'rsatib, o'zining shaxsiy kitob xazinalariga ham yo'l ochdi. Muhammad Rahimxon II asosiy ideallardan biri sifatida Hirotda madaniyat eng yuqori darajasiga ko'tarilgan marhum temuriylar davrini, Husayn Boyqaro hukmronlik davrini tanladi. Arxitektura, amaliy san'at, xattotlik, kitob ishi rivojlangan. Feruz musulmon Sharqining boshqa hukmdorlari singari shariat homiysi bo'lishga intilgan. Xorazm saroy tarixchisi Muhammad Yusuf Bayoniyni yozishicha, Xiva shahri qoshida o'n beshdan ortiq madrasa qurdirgan.

Xiva xonligi madaniyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu yerda asosan, me'morchilik sohasi ham rivojlanganligini haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Xiva shahri tarixiy qurilish, butunligicha bino va inshootlar, aslida ochiq havodagi butun bir shahar amalda tarixiy holda saqlanib qolgan dunyoning bir nechtagina shaharlardan biri. XIX asrda Xiva shahri bir-biridan devor bilan ajralib turuvchi ikki qismga: Ichan qal'a (Ichki shahar) va Dishan qal'a (Tashqi shahar) ga bo'lindi. Ichan qal'a bobolarimizdan qolgan O'rta Osiyodagi yirik va noyob me'moriy yodgorlikdir. Rivoyatlarda aytilishicha, Ichan-Qal'a qo'rg'oni qurilishida Muhammad payg'ambar Madinani qurishda uni olib ketgan joylardan loy ishlatilgan. Keyinchalik paydo bo'lgan ko'l muqaddas hisoblanadi. Boshqa bir afsonada aytilishicha, suv ajoyib ta'mga ega bo'lgan Xeyvak qudug'i Injil Nuhning o'g'li Shem tomonidan qazilgan. Ichan qal'a devorlari: balandligi 8-10 metr, qalindigi 5-6 metr va tashqi perimetri

bo'ylab uzunligi 6250 metrni tashkil etadi. Shahar darvozalari ham mudofaa tizimining bir qismi edi. Omon qolgan darvozalar shuni ko'rsatadiki, ular o'tish joyining ikkala tomonida joylashgan "zarba" minoralari va darvoza ustida tomosha galereyalari ham mavjud. Darvoza arklari ostidan shahar tomon yo'nalgan yo'lak arksimon peshtoq (Qo'y-Darvaza) yoki, agar yo'lak juda uzun bo'lsa, bir necha gumbazli bo'lgan. Dishan qal'a devorlari: balandligi 7-8 metr, qalinligi 5-6 metrni tashkil etadi. Qurilishiga ko'p aholi jalb qilinib, qal'a 6 haftada qurib bitkazilgan. Dishan qal'ada 10 ta darvoza mavjud bo'lgan: Hazarasp (Qo'y), Pishkanik, Bog'i Shamol, Shayxlar, Tozabog', Shohimardon, Doshoyoq, Qo'sh Gadoylar va Gandumiyon(Hazarasp va Qo'sh darvozalaridan boshqalari saqlanmagan. Dishan qal'ada hozir ma'muriy va maishiy binolar, xiyobonlar barpo etilgan. Me'morchilik obidalaridan yana bittasi XX asrda Asfandiyorxonning rasmiy qabulxonasi Nurullaboy saroyidir. Bu saroy-bog'ni Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruz o'g'li Asfandiyorxon uchun qurdirgan. Nurullaboy degan shaxsning bog'iga qurilganligi uchun Nurullaboy saroyi deb ataladi. Nurullaboy saroyini qurish 1904-yildan boshlanib, 1910-yilda Muhammad Rahimxon II vafotidan so'ng yangi xon Asfandiyorxon davom ettirdi. Qurilishga xivalik hunarmand va rassomlardan tashqari Rossiya va Germaniyadan ham mutaxassislar jalb etilgan bo'lib, ular obyekt dizayniga o'z ta'sirini o'tkazgan. Qurilish materiallarini bir qismi jumladan, asosan Sank-Peterburgda ishlab chiqarilgan plitka va keramika ham import qilingan. Nurullaboy saroyi 9 ta katta-kichik xonalar, darvozaxona, saroy, qabulxona, arzxona, xizmatchilar uchun turar joy, bog', gulzorli hovlilardan iborat. Majmuaga ariq ustida qurilgan ko'prik orqali darvozadan kiriladi. Nurullaboy saroyining ganchkor devorlari oltin va kumush bilan hallangan, zalning "oltin shifti" nihoyatda ko'rkam, undagi murakkab girix naqshlar o'ziga xos, ichki va tashqi darvozalari, eshiklari, ayvon ustidagi naqshlar Xorazm yog'och o'ymakorligining yorqin namunasidir. Qabulxonada baland eshiklar, katta rangdor oynalar, parket pollar va koshinkor pechlar yevropa me'morchiligi bilan uyg'unlashgan. Tashqi tomoni silliq g'ishtlar va feruza rang koshinlar bilan shaxmat taxtasi shaklida bezatilgan. Uni qurishda ganchkor ustalar Xudoybergan hoji, usta Nurmat, Ro'zimat Masharipov, yog'och o'ymakorligi va uni bo'yash ustalari Bobojon Qalandarov, Ota Shayx, Ismoil Abduniyozov, g'isht teruvchi Quryoz Bobojonov va boshqa qatnashgan. Nurullaboy saroyi mujassamotida Xorazm milliy uy-joy qurilishining an'anaviy xususiyati o'z ifodasini topgan. Bino arxitekturasi an'anaviy sharqona me'morchilik va Yevropa uslubidagi elementlar aralashmasi bilan ajralib turadi. Ichan qal'a markazida joylashgan me'moriy yodgorliklardan yana biri Islomxo'ja minorasidir. Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri va qaynotasi Islomxo'ja qurdirgan. Madrasa qurilishi 1908-yildan boshlangan. 1910-yilga kelib qurilish ishlari tugallandi. Islomxo'ja madrasasi 42 ta hujradan iborat bo'lib, ilm dargohida 50 talaba tahsil olgan. Islomxo'ja zamonasining mashhur kishilardan biri bo'lib, Xiva shahrining obodonchiligi uchun

jon kuydirgan. Islomxo'ja yirik madaniyat va davlat arbobi edi. U Xorazmni dunyoning eng rivojlangan davlatlari qatorida ko'rishni istagan, vatanini tashqi dunyo bilan bog'lashga intilgan ilg'or g'oyalar bilan to'lib tushgan inson edi. Islomxo'ja minorasi shaharning hamma qismidan ko'zga tashlanib turadi. Islomxo'ja madrasasi va minorasini barpo etishda me'mor Xudoybergan hoji, naqqoshlar Eshmuhammadxon Xudoyberdiyev, Bolta Voisov va boshqalar qatnashgan. Madrasaning eng katta xonasi yirik gumbazli masjididir. Masjid ichki qiyofasi Xiva ustalari ijod maktabiga xos tarzda katta gumbazli xona tipida yopilgan. Masjidning janubiy tarafida joylashgan burchakdagi gumbaz ostida va mehrobda sirkor hamda ganchkori bezaklar ishlatib chiroyli manzara yaratilgan.

Xulosa: Xiva xonligida madaniyat o'ziga xos yo'nalishda davom etdi. Madaniy hayot ravnaqi ta'lim tarbiya, adabiyot, tarixnavislik, me'morchilik va amaliy san'at kabilarda kuzatildi. Butun O'rta Osiyo xonliklari davrida bo'lganidek, Xiva xonligida ham asosiy ilm o'chog'lari maktablar va madrasalar edi. XIX asrda Xiva xonligida 1500 ga yaqin boshlang'ich maktab va 130 ta madrasa bo'lgan. Xiva shahrining o'zida 22 ta madrasa bo'lgan. Xiva xonligida nozik did bilan ishlangan o'ziga xos naqshlari, yorqin bo'yoqlari bilan ajralib turuvchi kulolchilik san'ati ham rivojlangan edi. Usta Allokora, usta Yusuf kulol, usta Vays va usta Kalontar o'z asarlari bilan mamlakatdan tashqarida ham mashhur edilar. Xiva xonligida san'atning eng ommabop turi qo'shiq, musiqa va raqs bo'lgan. Og'ir turmush sharoiti ham, xon amaldorlarining zulmi ham Xorazm xalqining qo'shiq va musiqaga bo'lgan mehr va qiziqishini so'ndira olmadi. Xorazm musiqa uslubi avvaldan rivojlanib kelayotgan musiqiy an'analar majmuyi. Ko'pgina manbalarda madaniyat va san'at markazi Xorazm deya aytilishi ham bejiz emas. Xorazm maqom va musiqa maktabi Xiva xoni Muhammad Rahimxon II davrida rivojlandi. O'z davrining ma'rifatli hukmdori bo'lgan Feruz san'at namoyondalariga katta imkoniyatlar yaratib berib, ular faoliyatiga homiylik qilgan. Feruzning 1882-yildagi farmonida shunday deyilgan "Biz kim, Xorazm mamlakatning oliy xoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi farmoni oliyga imzo chekdik. Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e'lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shak keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!" Xiva xonligi davrida me'morchilik sohasi ham juda yaxshi taraqqiy etgan edi. Xorazm me'morchilik uslubining o'ziga xos tomoni shundaki peshtoqlar, shiplar, burjlar o'ta nozik did va nafosat timsoli arabiy yozuvlar bilan bezatilardi. Mohir xattotlar bu yozuvni o'ta mohirlik bilan bino bezagiga uyg'unlashtirib yubora oldilar. Yog'och o'ymakorlari esa eshik, darvoza va ustunlar o'ymakor naqshlar bilan bezab, o'sha binolarning umumiy ko'rinishiga o'ziga xoslik va jilo baxsh etardi. Xiva o'zining tarixiy o'tmishi, me'moriy tuzilishi, obidalarning yaxlit saqlanganligi jihatidan qadimiy shahar hisoblanadi. Yer kurrasida mashhur Qohiraga tengdosh bo'lgan bu shaharning Ichan qal'a qismi 1990-yilda Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan

100 ta shahar bo'lib dunyoga Al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivaqiy, Pahlavon Mahmud, Muhammad Rahimxon(Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergan azim zamin hisoblanadi. Bu o'lka zamin, ulkan diyor, a'zim o'lka qaysidir ma'noda yurtimizning "Ulkan Renessansi" hisoblanadi. Ko'hna Xiva -- ochiq osmon ostida asrlarga teng tarix, madaniyat, milliylik va o'ziga xoslikni saqlab kelmoqda. Bu shaharning Qohiraga tenglashtirilishi ham bejiz emas, chunki bu azim shahar madaniyati, me'morchilik uslublari jihatidan dunyoning eng mashhur shaharlaridan qolishmaydi. Asrlarga teng tarixni jamlagan ushbu shahar hozirgi kunda ham ko'pgina olimlar, xorijiy turistlarni, sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.S.Tillaboyev, A.Zamonov "O'zbekiston tarixi" darsligi."Ilmiy metodik kengashi" nashriyoti."Toshkent"2019.150-151 betlar.

2.U.Jo'rayev, Q.Usmonov, G.Jo'rayeva, N.Norqulov "O'zbekiston tarixi" darsligi."O'qituvchi" nashriyoti."Toshkent" 2019.96-97 betlar.

3.<https://gender.org/mundarija>.

4.<https://xorazm.uz/oz/>

5.<https://bilimlar.uz/muharrir>

6.<https://z.m.wikipediya.org>.

7.<https://fayllar.org>.